



## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O`RGANILISHI

*Ochilova Zilola Xabibjon qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO`TAU*

*Ona tili va adabiyoti ta`limi fakulteti 3-bosqich talabasi*

[Ochilovazilola02@gmail.com](mailto:Ochilovazilola02@gmail.com) +998939371104

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada frazeologik iboralarning taraqqiyot bosqichlari va olimlarning frazeologiya borasida olib borgan ilmiy tadqiqotlari va erishgan yutuqlari, mustaqillik yillaridan keyin frazeologiyaning yanada keng o`rganilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** *frazema, frazeologik ibora, lug`aviy ma`no, idiomatik birikma, parafrazalar*

**Abstract:** In this article, the stages of development of phraseological expressions www and the scientific research and achievements of scientists in the field of phraseology, and the wider study of phraseology after the years of independence are discussed.

**Keywords:** *phrase, phraseological phrase, dictionary meaning, idiomatic combination, paraphrases*

Tilning lug`at tarkibidagi ma'lum frazemalar haqida ma'lumot beruvchi bo`lim frazeologiya hisoblanadi. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa bog`liqdir. Birdan ortiq leksemaning birikuvidan hosil bo`lgan, obrazlilik xususiyatiga ega bo`lgan leksikologiya bo`limining bir qismidir.

Frazeologik iboralarning turli xil xususiyatlarining tashqi shakliga qarab tasnif qilish orqali ham aniqlash mumkin. Bu tasnifda ko`proq frazeologik iboralarning tarkibidagi so`zlar soniga qarab e'tibor beriladi. Tasnif natijasiga, iboralar tabiatiga ko`ra nechta so`zdan tashkil topganini aniqlash mumkin. Ko`pgina



tilshunoslar frazeologik iboralar faqat ikki so‘zdan ortiq bo‘ladi, degan fikrlarni aytadilar. Ammo kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik iboralar ikki, uch va undan ortiq so‘zlardan iborat bo‘ladi. Ammo ayrim tilshunoslar bir so‘zdan iborat iboralar ham bor deb bildiradilar. Jumladan, professor A. Jafarovning fikricha, bir so‘zdan iborat iboralar idiomatik birikmaning eng yuqori taraqqiyot bosqichida hosil bo‘ladi. Bu turdagи iboralar qo‘shma so‘z yoki yakka so‘z bilan ifodalanadi, ular to‘g‘ridan to‘g‘ri fikrni anglata olmasligi jihatdan qo‘shma so‘zlardan farq qiladi. To‘g‘ri, bir so‘z orqali ham idiomatik ma’no anglatadi. Lekin bunday so‘zlarni ibora deyish qiyin. Chunki ibora so‘zlar birikmasidan iborat bo‘lishi kerak. Bu haqda V.V.Vinogradov, A.Abakumov, A.Ashaxmatovlarning fikrlari qimmatga sazovordir[18;37]. Idiomatik so‘zlar faqat yolg‘iz so‘zlardangina tashkil topib, idiomatik ma’no anglatadi. Lekin ibora aks ettirgan xususiyatlarni aks ettira olmaydi. Akademik V. V. Vinogradovning aytishicha, frazeologik birikmalarining taraqqiyoti frazeologik butunlikdan boshlanib, frazeologik qo‘shilmalarga aylanishi kerak, farafeologik butunlikdan frazeologik chatishmalar, keyinchalik esa frazeologik qo‘shilmalarga taraqqiy etishi kerak. Shu fikrga asoslanib, Sh.Raxmatullayevning “Idiomatik so‘zlar frazeologik qo‘shilmalar negizada vujudga keladi” degan fikrlari asoslidir. Frazeologik birikmalar asosan so‘zlar birikmasidan iborat, boshqacha aytganda, frazeologizmlar tilning alohida birligi bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra erkin bo‘g‘lanma yoki gapga teng to‘liq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turg‘un so‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi. “Frazeologiya” atamasi yunoncha “fraz” (phrasis-ifoda, nutq o‘rami) so‘zidan olingan bo‘lsa-da, bu atama turlicha ma’nolarni ifodalashda xizmat qiladi. Shu sababdan frazeologiya atamasi tilshunoslikda ikki ma’noda qo‘llaniladi: tildagi mavjud jami frazeologik birliklarning jami ma’nosida, hamda shunday birliklarning o‘rganuvchi soha ma’nosida. Demak, frazeologiya iboralar haqidagi ilm demakdir. Tilshunoslikning boshqa sohalari singari frazeologiya o‘ziing shakllanish va taraqqiyot bosqichlariga ega. Jahon tilshunosligida frazeologiya tez taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Jumladan,



birgina turkiyshunoslikda frazeologiyani sistemali ravishda o‘rganish o‘tgan asrning 40-50 yillaridan boshlandi. Shu davrda turli tillardagi frazeologik birliklarni grammatik, leksik-semantic jihatdan o‘rganish sohasida muhim yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Umuman olganda, frazeologiya keyingi yillarda tez sur’atlar bilan taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Bu sohada juda ko‘p mamlakatlar olimlarining e’tiborida bo‘ldi. Frazeologik birliklarning tabiatini va hosil bo‘lish usullari A.M.Babkin, Yu.A.Gvozdaryev ishlarida uchraydi. Frazeologik birliklarning o‘zaro sinonimik, antonimik variantdoshlik, omonimik xususiyatlari N.M.Shanskiy, A.M.Melerovich, V.A.Yastelenko ishlarida keng tahlilga tortilgan. Umuman olganda, frazeologiya keyingi yillarda tez sur’atlar bilan taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Bu sohada juda ko‘p mamlakatlar olimlarining e’tiborida bo‘ldi. Frazeologik birliklarning tabiatini va hosil bo‘lish usullari A.M.Babkin, Yu.A.Gvozdaryev ishlarida uchraydi. Frazeologik birliklarning o‘zaro sinonimik, antonimik variantdoshlik, omonimik xususiyatlari N.M.Shanskiy, A.M.Melerovich, V.A.Yastelenko ishlarida keng tahlilga tortilgan. Shunisi muhimki, frazeologiya faniga doir yangicha ilmiy-nazariy qarashlar keyingi yillarda yaratilayotgan darslik va o‘quv qo‘llanmlaridan ham mustahkam o‘rin olmoqda. Masalan, professor M.Mirtojiyevning fikricha, iboralar turg‘un birikma holidagi atamalar (milodiy yil, agrar masala, katta maslahatchi, ilmiy xodim kabi), parafrazalar (mo‘yqalam sohibi, ilm zahmatkashlari, zangori kema kapitani kabi) va frazeologizmlar (ko‘ngli xira tortdi, kavushini to‘g‘rilab qo‘ydi kabi) dan iborat. Professor H.Jamolxonov esa frazemalarni ko‘chma ma’noli turg‘un konstruksiya deb hisoblaydi. Olimning ta’kidlashiga ko‘ra, frazema ham leksema kabi lug‘aviy birlik sanaladi, ammo o‘zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan farqlanadi. Professor Sh.Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” nomli yangi darsligida frazeologizmlarni o‘rganuvchi sohani frazemika deb nomlaydi. Bu ishda ta’kidlanishicha, “frazema til qurilishining lug‘at bosqichiga



mansub ikkinchi lisoniy birlik bo‘lib, bittadan ortiq leksemaning o‘zaro semantik sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo‘ladi, shunga ko‘ra tuzilma segment birlik deyiladi; sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gapshaklga teng bo‘lib, odatda nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihatni bilangina emas, mazmun jihatni bilan ham farq qiladi”. Bundan ko‘rinadiki, frazemalarning xususiyatlarini talqin qilishda yangi nashr etilgan darslik va qo‘llanmalarda ham yaxlitlikka erishilganicha yo‘q.

Mustaqillik yillarida o‘zbek frazeologiyasiga doir Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lashuvi” (1992), A.Mamatovning “Frazeologik stilistika masalalari” (1991), “Frazeologizmlarning shakllanish asoslari” (1996), “Frazeologizmlar shakllanishining nazariy asoslari” (1997), A.Abdusaidovning “Frazeologizmlar – matbuot tilida ta’sirchan vosita” (2001), mazkur satrlar muallifining “Frazeologiya tarixidan lavhalar” (1998), “Frazeologik uslubiyat asoslari” (1999), “Parafrazalarning frazeologizmlar bilan munosabati va ularni mакtabda o‘rganish masalalari” (hamkorlikda, 2001), “O‘zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari” (2002), “Ufq” trilogiyasining lingvopoetik tahlili masalalari” (hamkorlikda, 2006), “Shoir Erkin Vohidovning frazeologizm qo‘llash mahorati haqida” (hamkorlikda, 2007), “O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti” (2008), “O‘zbek tilida o‘zlashma frazeologizmlarning semantik-uslubiy xususiyatlari” (hamkorlikda, 2012) singari qator tadqiqotlari maydonga keldi. Masalan, prof. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lashuvi” nomli tadqiqotida frazeologizmlar dastlab bog‘lashuvli va bog‘lashuvsiz iboralar deb ikki guruhga ajratilagan; bog‘lashuvchi frazeologizmlar esa o‘z navbatida bir, ikki, uch bog‘lashuvli deb guruhlangan va ularning bog‘lashuv imkoniyati keng yoritilgan. Ishning alohida qismlarida frazeologizmlardagi variatsiya va bog‘lashuv, polisemiya va bog‘lashuv masalalari o‘rganilgan.



Shunday qilib, o‘zbek tilshunosligida frazemalarni struktural-grammatik, semantik-uslubiy, funksional jihatlardan o‘rganish sohasida muayyan yutuqlarga erishildi, monografiyalar, ilmiy maqolalar, frazeologik lug‘atlar yaratildi, bir necha nomzodlik dissertatsiyalari hamda Sh.Rahmatullaev, Abdimurod Mamatov, B.Yo‘ldoshev, Abdug‘afur Mamatovlarning doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Shunday bo‘lsa-da, o‘zbek frazeologiyasida hali chuqur ilmiy o‘rganishni taqozo etuvchi muammolar ham anchagina borligi ko‘zni quvontiradigan holat. Umuman olganda, o‘zbek frazeolog olimlari oldida turgan muhim muammolar juda ko‘p. Shulardan yana biri endilikda “O‘zbek tili frazeologiyasi”, “O‘zbek tilining frazeologik uslubiyati”, “O‘zbek tilining tarixiy frazeologiyasi”, “O‘zbek va boshqa turkiy tillarning qiyosiy frazeologiyasi”, “O‘zbek tilining dialektal frazeologiyasi”, “O‘zbek tilining frazeologik semantikasi” singari fundamental ilmiy tadqiqot ishlari yaratishga kirishishdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Mamlakatimizda o‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, tilimiz, ma’naviyatimiz va madaniyatimiz qadriyatlarining qayta tiklanishi o‘zbek tilining bebafo boyligi bo‘lgan frazemalarni to‘plash va o‘rganish ishini ham yangi pog‘onaga ko‘tarishni taqozo etadi. O‘zbek frazeologiyasi erishgan yutuqlar mamlakatimizda bevosita frazeologik birliklarni to‘plash va frazeologik lug‘atlar tuzish muammolari bilan shug‘ullanuvchi frazeografiya sohasining ham rivojlanishiga olib keldi. Masalaga ana shu jihatdan qaraganda, o‘zbek frazeografiyasining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini ko‘zdan kechirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Aytboev D. Perifrazalarning o‘rganilishiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. 2006
2. Abdullayev A. Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati.
3. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish



4. Raxmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari. – T.: Akadem nashr.1985.
5. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. –
6. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent:
7. Qo`shnazarova M. Frazemalarda antisemiya.